

**QORAQALPOG‘ISTONDA TURIZM SOHASIDA  
KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI**

*Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*  
**Nurmuxanova Guldana Jabbarbergen qizi**  
*guldanajabbarbergenovna@gmail.com*  
+998904249890

***Annotatsiya:** Bu tezisdagi Qoraqalpog‘istonda turizm sohasida klasterlarni shakllantirishning xorij tajribasi haqqida qisqasha ma’lumot berilib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Turizm klasterlari, madaniy klaster, gastronomik klaster, mehmonxonona klasteri, klaster mexanizimi, ekalogik turizm klasteri.*

Bugungi kunda turizm iqtisodiy rivojlanishning strategik tarmoqlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmning ulkan salohiyati mavjud bo‘lib, uni rivojlantirish uchun samarali mexanizmlarni joriy etish zarur. Turizm klasterlarini shakllantirish ushbu jarayonning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tezisdagi xorij tajribasiga asoslangan holda klaster mexanizmini Qoraqalpog‘iston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari yoritiladi.

Muvaffaqiyatli klasterlarga xorijiy turizm klasterlariga birqancha misollar keltirmoqchiman.

Italiya–Toskana gastronomik klasteri Toskana viloyati o‘zining gastronomik va sharob turizmi bilan mashhur. Viloyatda fermerlar, restoranlar, mehmonxonalar va turistik firmalar yagona tizimda ishlaydi. Klaster mahalliy mahsulotlarni targ‘ib etish, madaniy tadbirlar o‘tkazish va turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy foyda keltiradi. Mahalliy oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlarini targ‘ib qilish turizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Ispaniya–Barselona madaniy klasteri Barselona shahri madaniyat, arxitektura va sport turizmini rivojlantirish orqali klaster mexanizmini muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Bu yerda mehmonxonalar, transport infratuzilmasi va madaniy ob’yektlar birgalikda ishlaydi. Turistlarning ehtiyojlari va talablariga asoslangan xizmatlar ko’rsatish asosiy e’tiborda. Madaniy merosni saqlash va turistik xizmatlar tarmog’ini rivojlantirish orqali turistlarni jalb qilish.

Turkiya–Antaliya mehmonxona klasterlari Antaliya mintaqasida yirik mehmonxonalar va ular bilan bog’liq xizmatlar (ekskursiyalar, transport va madaniy tadbirlar) yagona klaster tizimida faoliyat yuritadi. Mehmonxonalar o‘z ichida turistlar uchun madaniy tadbirlar, sport musobaqalari va gastronomik festivallarni tashkil qiladi, bu esa turistlarning qiziqishini oshiradi. Mehmonxona va xizmat ko’rsatish infratuzilmasini rivojlantirish orqali turistlarga sifatli xizmat ko’rsatish mumkin.

Qoraqalpog’iston sharoitida klaster mexanizmini qo’llash

Qoraqalpog’istonda turizm klasterlarini shakllantirishda xorij tajribasiga asoslanib, quyidagi yo’nalishlarni rivojlantirish mumkin:

Madaniy va tarixiy turizm klasteri Ajiniyoz maqbarasi, Moynoq kemalari qabristoni va Ellikqal’a qadimiy shaharlari kabi joylar madaniy klaster markazlari sifatida rivojlantirilishi mumkin. Ushbu klasterda mehmonxonalar, gid xizmatlari va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar birlashtiriladi.

Ekologik turizm klasteri Aral dengizi hududidagi ekologik turizm klasteri uchun ekologik loyihalar va eko-mehmonxonalar tashkil qilinishi lozim. Bu sayohatchilarni ekologik muammolarni ko’rib, ularni hal qilish jarayonida ishtirok etishga jalb qilishga yordam beradi.

Mehmonxona markazli klasterlar Qoraqalpog’istonning turistik markazlarida mehmonxonalarning faoliyatini kengaytirish orqali ularni klasterning asosiy bo’g’iniga aylantirish mumkin. Masalan, Nukusdagi yirik mehmonxonalar atrofida quyidagi xizmatlarni rivojlantirish kerak:

- Ekskursiyalarni tashkil qilish;
- Milliy taomlar festivallari;

- Hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmalari va sotuvlari;
- Turistik xizmatlar (velosiped ijarasi, transport va gid).

Strategik rejalashtirish: Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali mehmonxonalar asosida klasterlar yaratish.

Texnologik rivojlanish: Mehmonxonalarning turistik xizmatlarni onlayn taqdim etishi va raqamli texnologiyalardan foydalanishi.

Investitsiyalarni jalb qilish: Xorijiy investitsiyalar yordamida mehmonxona infratuzilmasini rivojlantirish.

Mahalliy aholining jalb qilinishi: Mehmonxona klasterlarida mahalliy hunarmandlar, oshpazlar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi sohalarni jalb qilish.

Xorij tajribasini o'rganish Qoraqalpog'istonda turizm klasterlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Mehmonxonalarni klaster markazi sifatida rivojlantirish orqali turizm sohasida barqaror rivojlanish va turistlar oqimini oshirish mumkin. Bu esa mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR.

1. «O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 21-sonli Prezident qarori 12.01.2024 PQ-21
2. Porter M. (2001) Competition Moscow: Publishing House Williams. -P. 207
3. Шкежев, Р.Х. (2012) Стратегическое управление взаимодействием субъектов Интеграционных структур региональной экономики / Р. Х. Шкежев // Региональная Экономика и управление: электронный научный журнал. № 2 (30)
4. К.Т.Каленов Turistik klasterler. / Oqiw qollanba./ – NÓKIS: "ILIM NUR", 2024 jil – 274 b.
5. Каленов, К. (2021). АГРАР СОҲАДА СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИНИ ЙУЛГА ҚУЙИШНИНГ ЖАҲОН ТАЖРИБАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (4), 343-347.

6. Tursynbaevich, A. R., Tlegenovich, K. K., & Kairatovich, K. Z. (2023). CHINA URGANISH MARKET AND EXPORT KILINADIGAN VILLAGE HOUSEHOLD PRODUCTS INSURANCE PRODUCTS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 1-7.
7. Каленов, К. Т. (2014). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ НОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ОБЛАСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СТРАХОВАНИЯ. *The Way of Science*, 51.
8. Kalenov, K., & Utemuratova, R. (2024). Information necessary for the distribution of liability between partners in export cargo logistics services insurance the Republic of Uzbekistan. *Modern Science and Research*, 3(1).
9. Tlegenovich, K. K., Istamovich, R. N., & Baxadirovna, U. R. (2024). Modern Trends and Factors of Financial Development of the Agricultural Sector in the Republic of Karakalpakstan, Taking Into Account Agricultural Insurance. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777)*, 2(1), 97-101.
10. Каленов, К. Т., & Калимбетов, Б. И. (2022). Экономическое развитие аграрного сектора сложно экологических зон: на примере республики Каракалпакстан. In *Экономическое развитие России: точка баланса в мировой экосистеме и инфраструктура будущего* (pp. 123-129).
11. Каленов, К. (2021). Использование мировой практики отключения страховых услуг в аграрной сфере. *Экономика И Образование*, (4), 343-347.
12. Каленов, К. Т. (2021). Тенденции и факторы финансового развития аграрного сектора с учетом агрострахования в республике Каракалпакстан.
13. Kalenov, K. T., Kalbaeva, I. E., & Koblanov, Z. K. (2014). PROSPECTS FOR LIVESTOCK INSURANCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *The Way of Science*, 16.
14. Каленов, К. Т. АЎЫЛ ХОЖАЛЫҒЫ КӘРХАНАЛАРЫНДА ҚАМСЫЗЛАНДЫРЫҰ ХЫЗМЕТЛЕРИН КЛАССИФИКАЦИЯЛАҰ ТИЙКАРЫНДА ЖОЛҒА ҚОЙЫҰ. *МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ*

УЗБЕКИСТАН                      КАРАКАЛПАКСКИЙ                      ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ БЕРДАХА, 184.

15. Адильчаев, Р. Т., Каленов, К. Т., & Узаков, Р. М. (2021). ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ ФИНАНСОВОГО РАЗВИТИЯ АГРАРНОГО СЕКТОРА С УЧЕТОМ АГРОСТРАХОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН. In *Управление в XXI веке-проблемы и перспективы* (pp. 302-310).
16. Каленов, К., & Юлдашева, А. (2024). ТУРИЗМНИ ДОЙИМИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДА                      ТРАНСПОРТ                      СОҲАСИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(30), 15-18.
17. Kalenov, K., & Ganieva, E. (2024). Respublikamizda turizm sohasini doyimiy rivojlantirishda transport xizmatini takomillashtirish. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2(2), 333-337.
18. Kalenov, K., & Utemuratova, R. (2023). QISHLOQ XO ‘JALIGI KORXONALARIDA XATARLARINI O ‘ZARO SUG ‘URTALASH JAMIYATLARI TASHKIL ETISH ORQALI SUG ‘URTALASHNING XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3 Part 2), 100-105.